


# SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*






*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



11 951




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

5 785



Oilaviy korxonona

137



Unitar korxonona

7 759



Xususiy korxonona

24



Aksiyadorlik jamiyati

358



Boshqa korxonalar

Mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



Xususiy korxonona birlik



### Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.




# Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)





### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar- noyabr oylarida, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- noyabr oylarida, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2021- yil yanvar- noyabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2021- yil yanvar- noyabr oylarida 4 942 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 733 ta, xususiy korxonalar – 870 ta, oilaviy korxonalar – 1 134 ta, muassasalar – 104 ta va boshqalar – 101 tani tashkil etdi.



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 5 785 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 615 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 357 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 674 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar- noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 134 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 647 taga yoki 3,3 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, 11 951 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 425 taga yoki 25,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 436 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 265 taga yoki 24,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar- noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 733 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 667 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.








Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, 586 tani tashkil etib, ulardan 568 tasi yoki 96,9 % faoliyat ko'rsatmoqda.


Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 155 taga yoki 137,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar- noyabr oylarida viloyatimizda 166 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- noyabr oylarida, birlikda)





## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



# Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami</b>	<b>4 437</b>	<b>5 620</b>	<b>7 560</b>	<b>9 171</b>	<b>11 436</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	385	618	816	1 203	1 629
Sanoat	717	908	1 218	1 452	1 818
Qurilish	731	956	1 356	1 518	1 815
Savdo	1 372	1 641	2 294	2 878	3 647
Tashish va saqlash	480	505	580	632	657
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	172	216	302	350	428
Axborot va aloqa	75	80	100	112	146
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	39	65	93	109	157
Boshqa turlar	466	631	801	917	1 139



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

12



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami</b>	<b>57</b>	<b>167</b>	<b>337</b>	<b>413</b>	<b>568</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7	47	88	103	126
Sanoat	33	51	91	113	134
Qurilish	1	10	18	21	40
Savdo	5	34	92	128	206
Tashish va saqlash	4	8	7	7	10
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	4	17	16	22
Axborot va aloqa	1	1	2	2	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	2	4	5	7
Boshqa turlar	4	10	18	18	21

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Surxondaryo viloyati	568	144	424
Termiz sh.	323	35	288
tumanlar:			
Oltinsoy	7	6	1
Angor	21	5	16
Bandixon	1	-	1
Boysun	8	6	2
Muzrabot	14	6	8
Denov	17	8	9
Jarqo'rg'on	17	10	7
Qumqo'rg'on	11	5	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	19	10	9
Termiz	49	19	30
Uzun	38	18	20
Sherobod	18	8	10
Sho'rchi	15	7	8



# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

15




2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (18,5 %), Denov (11,8 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Sho'rchi (7,0 %), Qumqo'rg'on (6,7 %), Termiz (6,6 %), Sherobod (6,5 %), Uzun (5,2 %), Sariosiyo (5,2 %), Qiziriq (4,8 %), Angor (4,7 %), Boysun (4,6 %), Muzrabot (4,6 %), Oltinsoy (3,9 %) va Bandixon (1,9 %) tumanlarida hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021-yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)

2021-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Termiz sh. (21,1 %), Denov (11,2 %), Jarqo'rg'on (7,9 %), Sherobod (7,8 %), Sho'rchi (7,4 %), Qumqo'rg'on (6,4 %), Termiz (5,2 %), Uzun (5,1 %), Sariosiyo (5,1 %), Angor (4,6 %), Muzrabot (4,2 %), Qiziriq (4,1 %), Boysun (4,0 %), Bandixon (3,2 %) va Oltinsoy (2,6 %) ulushiga ega.




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (27,0 %), Denov (9,4 %), Termiz (9,1 %), Jarqo'rg'on (7,1 %), Sherobod (6,3 %), Sho'rchi (5,3 %), Boysun (5,3 %), Qumqo'rg'on (5,1 %), Qiziriq (4,6 %), Angor (4,5 %), Muzrabot (4,2 %), Sariosiyo (4,2 %), Uzun (3,4 %), Oltinsoy (2,5 %) va Bandixon (2,0 %) ulushiga ega.




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.



# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar- noyabr oylarida, birlikda)




2021- yil yanvar- noyabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Denov (12,7 %), Termiz sh. (11,5 %), Uzun (9,9 %), Sariosiyo (9,2 %), Jarqo'rg'on (9,0 %), Sherobod (7,7 %), Qumqo'rg'on (6,0 %), Sho'rchi (5,4 %), Angor (5,0 %), Muzrabot (4,7 %), Bandixon (4,1 %), Qiziriq (4,0 %), Boysun (4,0 %), Oltinsoy (3,5 %) va Termiz (3,3 %) tumanlari ulushiga ega.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yil yanvar- noyabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tuzidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-oktabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel. (76) 225-65-90**